

VOLFGANG BORXERT LIRIKASIDA CHIROQ TIMSOLI

Sh. Tursunova ¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada nemis zamonaviy adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan hikoyanavis yozuvchi va shoir Volfgang Borxertning she'riyati haqida fikr mulohazalar keltirilgan. Uning she'rlaridagi badiiylilik, tasvir va ifodalar qaysi usul va yo'llar bilan yaratilganligiga qiziqish bizni bu maqolani yozishga undadi. Ko'pchilik Borxertni yozuvchi sifatida taniydi, ammo uning she'rlaridagi ma'no va ta'sirchanlik, hikoyalaridan aslo qolishmaydi. Borxert she'riyatida lampa, chiroq va mayoq so'zlari tez-tez qo'llaniladi va odatda bu so'zlarlar umid va ishonch timsoli sifatida tasvirlanadi, ushbu maqola orqali uning she'rlaridagi bu timsollarni ma'nolarini tushunishga, va tahlil qilishga, harakat qilamiz. Bundan tashqari xorijiy tadqiqotchilarning shoir ijodi haqidagi fikrlari, uni ekspressionizmga mos ravishda ko'rib chiqishni qo'llab-quvvatlovchi dalillar keltirilgan. V.Borxert she'riyati 40-yillarning o'rtalarida Germaniyada ushbu yo'nalishning yangi bosqichini ifodalashi aniqlangan. Maqolada ijodkorning "Ich möchte Leuchtturm sein" (Men mayoq bo'lmoqchiman) va "Wenn ich tot bin" ("Agar o'lsam...") kabi nazmiy asarlarni tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: Volfgang Borxert, she'riyat, lampa va chiroqlar tasviri, mayoq, port, Hamburg oqshomi, urushdan so'nggi adabiyot, ishonch, umid timsoli

doi: <https://doi.org/10.2024/zggmh741>

Biz 21-asrda demokratik va xavfsiz sharoitda yashayapmiz. Shuni unutmasligimiz lozimki, bu farovonlik qariyb bir asr vaqt oldin har kungi hodisa emas edi. 20-asr jahonga ikkita ayanchli urushini olib keldi va bu urushlar bizdan oldingi avlodlar uchun halokatli oqibatlariga to'la bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi bir qator yosh mualliflarga adabiyotdan o'zlari uchun ovoz yaratish va tajribalarini qayta ishlash uchun foydalanish imkoniyatini berdi. Yosh Volfgang Borxert ko'plab qisqa hikoyalar yozish qatorida she'riyat bilan ham shug'illandi.

Har bir yozuvchining ijodi yagona bir o'ziga xoslik bo'lib, u yozgan barcha asarlarni o'z ichiga oladi. Odatda, muallif asosan bitta ma'lum janrda ishlaydi. Ayrim yozuvchilar o'z ijodiy maqsadlarini to'liqroq ifodalash uchun turli janrlar imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qiladilar. Turli janrlarda parallel ishlagan mualliflar orasida esa mashhur nemis yozuvchisi Volfgang Borxert ham bor. V.Borxertning ijodiy me'rosiga hikoyalar, qissalar, pyesalar, she'rlar va publitsistik asarlar kiradi. Ushbu maqolada yozuvchining she'riyatiga to'xtalamiz.

Volfgang Borxert nemis zamonaviy adabiyotida urushdan keyingi eng taniqli mualliflaridan biri ekanligi shubhasiz. Uning asarlarini o'qish jarayonida kitobxon asar qahramonlarida kechayotgan kuchli ruhiy holatni his qiladilar.

¹ Tursunova Shahnoza Ikromovna, NavDPI doktoranti

U Germaniyada va jahonda eng ko'p o'qiladigan qisqa hikoyalar muallifi sifatida mashhurdir. Ijodkor odatda asarlariga turli xil hayotiy holatlarni mavzu qilib olgan. "Ehtimol, bir yildan keyin hech kim men haqimda gapirmaydi"[1;72], deb yozgan edi Volfgang Borxert 1947 yil 8 iyunda radio spektakli va keyinchalik "Draußen vor der Tür" ("Tashqarida, eshik oldida") dramasi haqidagi shov-shuvlarga munosabat bildirgan holda. Ammo buning aksi sodir bo'ldi. Haynrix Bo'll kabi Volfgang Borchert urushdan keyingi davrning eng taniqli mualliflari qatorida, bugungi kunda ham ko'p o'qiladi.

Agar Borxertni urushdan keyingi adabiyotning boshqa mualliflari bilan solishtiradigan bo'lsak, u qisqa vaqt ichida salmoqli ijod qila olgan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. U bugungi kunda ham mashhur bo'lgan asarlari bilan urushdan keyingi butun bir avlodga madaniy me'ros qoldirdi. "Shu seshanbada", "Non" kabi hikoyalari yoki "Eshik tashqarisida" pyesasi bilan urush va g'ayriinsoniylikni shafqatsizlarcha aybladi.

U nafaqat hikoyanavis yozuvchi, balki qaynoqqalb shoir sifatida nazmda ham qalam sura olgan ijodkor. Uning she'rlari romantik, jo'shqin, his-hayajonga boy ekanligi bilan bir qatorda, kishini falsafiy tomondan o'ylashga ham majbur etadi. Hayot va tabiatni nihoyatda sevadigan shoir quyoshni, oyni, yulduzni, daraxtlaru hayvonlarni, derazani taqillatgan yomg'irni, o'tloqdagi gullarni she'rlariga qahramon qilib oladi. Uning nashriyotchisi u haqida shunday deb yozgan edi: "U quyoshni sevardi, tunni yaxshi ko'rardi. Kechasi esa port bo'yida, suvga aksi tushgan, yolg'iz porlayotgan chiroqlar unga yoqardi"[2;6].

Bir she'rida u shunday yozadi:

Ich möchte Leuchtturm sein
in Nacht und Wind –
für Dorsch und Stint,
für jedes Boot –
und bin doch selbst
ein Schiff in Not [3;7]
Men mayoq bo'lmoqchiman
Tunda va shamolda -
Baliq va nahang uchun,
har bir qayiq uchun -
ammo o'zim muhtojlikdagi
bir kemaman.

(so'zma-so'z tarjima Tursunova Shahnoza)

U ushbu she'rida "mayoq" bo'lishni xohlaydi. O'z xabarini dunyoga aytmoqchi bo'ladi. U hayotni go'zalligini va daxshatini tushunishni va ko'rsatishni xohlaydi; oddiy odamlarga yaqin bo'lgisi keladi, ularga intiladi.

Mayoq uzoqdan ko'rinadigan diqqatni jalb qiladigan mo'jal nuqtasidir. U navigatsiya uchun muhim bo'lgan geografik nuqtalarni topadi. Noma'lum manzillarda yo'l ko'rsatadigan signaldir. Aslida mayoq insoniyatning eng qadimgi aloqa vositasi, shuningdek, yordam, xavfsizlik, orientatsiya va barqarorlik ramzi hisoblanadi. Qorong'ida yorug'lik, uyga xavfsiz qaytish uchun ko'makdoshtir. Borxert she'rlaridagi mayoq bo'lish istagi uning xarakteri, ruhiyati va ichki kechinmalari bilan bog'liqdir. U o'zi ham „muhtojlikdagi bir kema“ bo'lishiga qaramasdan, insoniyatga, jamiyatga, qolaversa tabiatga yordam bermoqchi bo'ladi. U mayoq bo'lib, insonlarni og'irini yengil qilmoqchi, ko'maklashmoqchi va shu bilan birga qalblarini yoritishga urinadi.

Borxert ancha erta, 15 yoshida she'r yozishni boshlagan, uning sher'lari Hamburg shahrining mahalliy gazetalarida tez-tez chop etila boshladi, ehtimol, uning birinchi she'riy namunalariga shoir Rayner Maria Rilke (1875-1926)ning muhim ta'siri bo'lgandir. Borchertning keyingi she'rlarida ham Rilkening ta'sirini sezish mumkin, masalan, "Laternentraum" ("Fonar orzusi") she'rida Rilke kabi yakuniy qofiya (Endreim)dan foydalanadi:

Wenn ich tot bin,
möchte ich immerhin
so eine Laterne sein,
und die müßte vor deiner Türe sein
und den fahlen
Abend überstrahlen.
Agar men o'lsam, baribir
shunday chiroq bo'lishni istayman
va u senining eshiging oldida bo'lib, (yonib)
rangpar oqshomlarni yoritib tursin.
Oder am Hafen,
wo die großen Dampfer schlafen
und wo die Mädchen lachen,
würde ich wachen
an einem schmalen schmutzigen Fleet
und dem zublinzeln, der einsam geht. [4;9]

Yoki portda
katta paroxodlar tin oladigan,
va qizlar kuladigan joyda
uyg'ongan bo'lardim
va tor, betartib ariq bo'ylarida
yolg'iz yurganlarga, kulib (ko'z qisib) qo'yardim.
(so'zma-so'z tarjima, Tursunova Shahnoza)

Bu satrlar 1946 yil oxirida Eppendorfdagi Hamburg she'riy uyushma kechasida birinchi marta o'qilgan va keyin tez orada nashr etilgan o'n to'rtta she'r bilan she'riyat davriyligini boshlaydi. Bu Wolfgang Borchert 1940-1945 yillarda yozgan „Laterne, Nacht und Sterne“ ("Fonar, tun va yulduzlar") nomli tanlangan asarlar to'plami va "Hamburg haqida she'rlar" sarlavhali she'rlar to'plamidan olingan she'r. Darhaqiqat, yulduzli yoki yulduzsiz Hamburg kechasi, Hamburg yomg'iri, chiroqli shaharning kulrang ko'chalari, panjaralari, porti va daryosi - Borxert kitobxonni o'sha davrga Hamburgga olib boradigan kalit so'zlar orqali xayoliy yo'l ko'rsatadi. Uning shahar hayotiga bo'lgan qarashlari sog'inchli va g'amgin edi. Uning she'rlari odamlar, ularning sevgisi, shuningdek, sog'inch, muhabbat haqida, Borxert bolalikdagi tassavurlari va orzulari, antiqa do'konning dahshatli voqealari haqida va bularning barchasida uning uyi bo'lgan katta va kulrang, boshpana- yo'qolgan shahar haqida yozadi. Bizningcha, hech kim Hamburg haqida bunchalik go'zal va qayg'uli tarzda she'r yoza olmaydi nazarimizda.

1939-yilning 1-aprelida ota-onasining aralashuvi bilan Wolfgang Borchert uzoq vaqtdan beri faoliyat yuritgan C.Boysen kitob do'konida shogirdlik faoliyatini boshlaydi. Kitob do'koni olti yillik milliy sotsialistik boshqaruvdan keyin kamdan-kam uchraydigan erkin faoliyat yurita boshlaydi. Borxert ko'p o'qiydi, ekspressionistik she'riyat bilan tanishadi, she'rlar yozadi va do'sti Gyunter Makkentun bilan birgalikda "Käse" nomli diktaturani tanqid qiluvchi

komediya yozadi, bu ikkalasi ham buni diktaturaga qarshi ajoyib zarba deb biladi. Rilke muxlisi bo'lgan Borxert o'zi yozgan sevgi maktublari hamda adabiy matnlarini ostida o'zini Volf Mariya Borchert (taxallusi bilan) deb ko'rsatgan. [5;12]

Aytishlaricha, u bolaligidan va maktab davridanoq otasi bilan yolg'iz sayr qilishni, uning hikoyalarini tinglashni yaxshi ko'rgan.

1940-yil oxirida Borxert aktyorlik imtihonidan muvaffaqiyatli o'tib, Sharqiy Hannoverning Luneburg shahridagi ko'pincha komediyalar qo'yiladigan mahalliy teatrida ish boshladi. Keyinchalik u bu davrni "hayotimning eng go'zal damlari edi" deb xotirlaydi. [7; 48]

Tabiatni sevadigan, insonlarga yaqin bo'lishni xoxlagan, vatan rivoji uchun o'zini mas'ul deb bilgan o'smir yoshidagi Borxert, anashunday hissiyotlari qurshovida aktyorlikni o'rgandi, bu uning o'rta maktab bitiruvchisi sifatida Gustav Gründgensdan ilhomlangan orzusi edi. Ammo urush barcha rejalarni chetga suradi. Endi Borxert harbiy xizmatga borishi, qo'lga qurol olib, janglarda qatnashishi kerak edi.

1941-yil mayda Borxert yigitlik xizmatiga yuborildi, ammo u armiyada ham she'rlar yozishdan to'xtamadi. Keyinchalik uning o'zi haqida yozishicha, hayotida bir necha ming she'rlar yozgan. [8;69]. Uning hamma e'lon qilingan she'rlari urush davrida yozilgan. Vaymar-Lutsendorfdan o'qib yurgan kezlarda tanqidiy xatlari tufayli Gestapo tomonidan shubha ostiga olindi, qamalish arafasida turganida, xat yozishib yurgan do'stlari bilan birga Rossiya davlatiga yuborildi. Bu vaqtlarda Borxert qo'lidan olgan o'q jarohati tufayli (1941-1942) lazaret (harbiy kasalxona) ga olib kelindi. U bu jarohatni o'ziga yetkazgan deb gumon qilinganligi sababli, Nyurnbergda hibsga olingan. Uch oylik qamoqdan so'ng u sudga tortildi, uning natijasi yo o'lim jazosi yoki oqlanish edi. U ayblovdan oqlandi, ammo shunga qaramay, talabalik paytlarida yozgan xatlari tufayli yana olti hafta qamoqda o'tirishga majbur bo'ldi.

1942-yil oktyabrida Borxert Zaalfeldga, keyinchalik, Yenaga yuborildi. Rossiyada, Moskva shahridan uncha uzoq bo'lmagan Toropets yaqinida yana jang qilishga majbur bo'ldi. U o'z holatini shunday tasvirlaydi: "...Meni tez-tez qattiq qo'rquv bosib turardi, chunki men doimo o'zimning nochor, zararsiz qurolimga qaram edim - shuning uchun men deyarli himoyasiz edim". 1942-yili dekabrning oxirida u yana lazarettga(harbiy kasalxonaga) olib kelindi. Bu safar uni muzlab qolgan oyoqlaridan tashqari, g'ayriodatiy qattiq isitma qiynar edi, shuning uchun u tez orada o'zini Smolensk epidemiya kasalxonasida topdi. Bu vaqtlar orasida ba'zan u o'zini yaxshi his qilardi, o'zini qiynayotgan sog'inch va qo'rquv hislarini she'rlariga ko'chirardi. [9;12]

Ammo uning sog'lig'i borgan sari yomonlashaverardi. 1943- yilning martida uni Germaniyaga qaytarib yuborishadi. Bu safar davomida uning sog'ligi anchagina yomonlashdi, 1943-yilning avgustigacha Elend (Harts)da zahiradagi harbiy kasalxonasida qoldi, keyin ta'tilga ruxsat olib, Hamburgga jo'nadi.Vataniga yetib kelganida, vayronalar ostida qolgan shahrini ko'rib hayratda qoldi; yaqindagina Hamburg butunlay bombordimon qilingan edi.

Urushdan so'ng ona shahriga yarador va kasal holda qaytib keldigan (davolab bo'lmaydigan jigar infeksiyasi) Borxert yozuvchi sifatida ijod qila boshladi. O'z hikoyalari bilan u urushdan azob chekkan, umidlari so'ngan, moddiy va ruhiy muammolarga uchragan insonlarga taskin bermoqchi, yupatmoqchi, hamdardlik bildirmoqchi bo'ladi, va shu orqali keyinchalik „Trümmerliteratur“ ("Xarobalar adabiyoti") deb ataladigan adabiy davrning bosh

qahramoniga aylanadi. Uning muvaffaqiyati, ehtimol, shoshilgani va hamdardligidadir. U nima bo'lganini tushunishga harakat qilayotgan, yangi yo'llar izlayotganlarga o'z asarlari orqali yo'l ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ko'plab asarlarining qahramonlarini o'zi yashayotgan jamiyatdan qidiradi, ularning taqdirida kechayotgan ko'rguliklarni nazm va nasr orqali xalqiga yetkazmoqchi bo'ladi.

Borchert "mayoq" bo'lishga muvaffaq bo'ladi, chunki uning o'zi ham shunday azoblangan, qalbi va tanasi yaralangan, umidsiz inson bo'lishiga qaramasdan, u ham "qiyinchilikdagi kema" („Schiff in Not“).

Borchert odamlarni befarqlik holatidan olib chiqish va harakat qilishga majbur qilish uchun so'nggi urinishni amalga oshiradi, degan fikriga qo'shilish mumkin.

M. Shmidt asosli ta'kidlaydiki, yozuvchining insonlarga she'riy yoki nazm shaklidagi murojaatida nafaqat umidsizlik va tushkunlik, balki Borxertning hayotga bo'lgan muhabbati, uning inson ongiga bo'lgan ishonchi, yangi xavfning oldini olish qobiliyati ham aks etgan [10; 109-110]. Shuning uchun ham M. Shmidtning Borxertning pessimizmi, hech bo'lmaganda, asosiy yo'nalishida optimizm elementlarini o'z ichiga oladi, degan fikriga ham qo'shilish mumkin [11; 111].

Aynan mana shu fakt Borxertning murojaatlari ham bashoratli, ham dolzarb ekanligini aytishga asos bo'ladi, Borxert ijodida o'tmish, hozirgi va kelajakni bog'lovchi ip butun matn bo'ylab ko'rinmas tarzda o'tib, uni odamlarni aql-idrokka, yangi dahshatli urush tahdidiga qarshi kurashishga chaqiruvchi butun bir ma'ruzaga aylantiradi.

1947 yil 19 sentyabrda 26 yoshli yozuvchi Wolfgang Borxert Gamburgdan Shveytsariyaga mashaqqatli poyezd safariga otlandi. Bu uning oxirgi safari bo'ladi. Og'ir kasal odam uni tog'dagi sanatoriyga olib borishayotganiga ishonadi. Biroq, Germaniya-Shveytsariya chegarasida buzilishdan so'ng, u katolik rohibalari tomonidan boshqariladigan Bazeldagi kasalxonaga yotqiziladi. Ikki oy davomida u o'zining sevimli vatani va ota-onasidan uzoqda, umrini so'nggi kunlarini Bazeldagi Klara kasalxonasida o'tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Rümke P. Wolfgang Borchert mit Selbstzeugnissen und Bilddokumenten. Hamburg: Rowohlt Taschenbuch Verlag, 1996
- [2]. Schröder Claus B. Draußen vor der Tür. Eine Wolfgang-Borchert-Biographie. Berlin, 1988.
- [3]. Borchert, Wolfgang. "Das Gesamtwerk", Rowohlt 1961. 7-bet
- [4]. Borchert, Wolfgang. "Das Gesamtwerk", Rowohlt 1961 9-bet
- [5]. Nolan, Carol, "Lampen und Laternen als Zeichen der Hoffnung in ausgewählten Werken Wolfgang Borcherts" (1985). Dissertations and Theses. Paper 3548. <https://doi.org/10.15760/etd.5432>
- [6]. Peter Ruhmkopf, W.Borchert Hamburg Rowohlt, 1961, 29-bet
- [7]. Peter Ruhmkopf, W.borxert Hamburg Rowohlt, 1961, 48-bet
- [8]. Schröder Claus B. Wolfgang Borchert. Die wichtigste Stimme der deutschen Nachkriegsliteratur. Ernst Kabel Verlag, Hamburg, 1985, 69-bet
- [9]. Nolan, Carol, "Lampen und Laternen als Zeichen der Hoffnung in ausgewählten Werken Wolfgang Borcherts" 1985, 12-bet
- [10]. Marianne Schmidt, Wolfgang Borchert: Analysen und Aspekte, 1970 109-110-betlar